



# NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## NAVOIY VILOYATIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO'RSATKICHLARI

**2024- YIL YANVAR-OKTABR**


# NAVOIY VILOYATIDA FAOLIYAT KO'RSATAYOTGAN QURILISH KORXONALARI

2024- yilning 1- noyabr holatiga Navoiy viloyatida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 1 234 tani tashkil etdi.



Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 388 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarining 31,4 % i Navoiy shahrida joylashgan.

## 2024- yil 1- noyabr holatiga qurilish korxonalarini soni, birlikda


### Hududlar kesimida




### Yillar kesimida qurilish tashkilotlari soni



Bino va inshootlar qurilishi



Fuqarolik obyektlarini qurish





Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Shuningdek, Karmana tumanda 212 ta (viloyat bo'yicha ularning jami soniga nisbatan 17,2 %), Qiziltepa tumanida – 193 ta (15,6 %) qurilish korxonalarini mavjud bo'lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko'rsatkichga ega.

## Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi (yanvar-oktabr oylari uchun)

2024- yilning yanvar-oktabr oylarida, Navoiy viloyatida jami 9 698,3 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 115,0 % ni tashkil etdi.



*Maʼlumot uchun:* Qurilish faoliyati bu – oʻz kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.


## 2024- yilning yanvar-oktabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2024- yilning yanvar-oktabr oylarida Navoiy viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi, jami qurilish ishlariga nisbatan ulushi 77,6 %ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 110,8 % ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi, jami qurilish ishlariga nisbatan ulushi 16,9 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 150,4 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi, esa 5,5 % ulushni va 2023- yilning mos davriga nisbatan 96,7 % ni tashkil etdi.



**Qurilish ishlari hajmiga** yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

## 2024- yilning yanvar-oktabr oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 81,8 % i yoki 7 933,0 mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 2 217,9 mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 28,0 % ni tashkil etdi.

28,0 %

2 217,9  
mlrd. so‘m

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 2 634,6 mlrd. so‘m yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 33,2 % ni tashkil etdi.

33,2 %

2 634,6  
mlrd. so‘m

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 3 080,5 mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 38,8 % ni tashkil etdi.

38,8 %

3 080,5  
mlrd. so‘m





# 2024- yilning yanvar-oktabr oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish ishlari hajmi

2024- yilning yanvar-oktabr oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm, Tomdi tumani (1 373,8 mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (1 208,6 mlrd. so'm), Navoiy shahri (1 137,8 mlrd. so'm), va Zarafshon shahri 881,1 mlrd. so'm) qayd etildi.

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Shu jumladan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish, mlrd. so'm
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>9 698,3</b>	<b>115,0</b>	<b>7 933,0</b>
<i>shaharlar:</i>			
Navoiy	1 137,8	103,0	819,7
Zarafshon	881,1	122,0	739,4
G'ozg'on	33,9	102,3	8,8
<i>tumanlar:</i>			
Konimex	125,9	84,5	40,6
Qiziltepa	1 208,6	110,4	931,1
Navbahor	550,5	97,6	443,9
Karmana	605,8	103,6	437,4
Nurota	546,4	73,1	427,6
Tomdi	1 373,8	6,6 m	1 261,2
Uchquduq	213,5	141,7	189,3
Xatirchi	548,8	103,6	399,0

*\*) joriy davr bo'yicha qurilish ishlari hajmi yashirin iqtisodiyotni qo'shgan holda hisob-kitob qilingan*




Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

## 2024- yilning yanvar-oktabr oylarida bino va inshootlar qurilishi asosiy ko'rsatkichlari

### Korxonalar turlari bo'yicha

Jami bino va inshootlarni qurish – **7 528,6 mlrd. so'm.**



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 25,1 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 11,3 % punktga ko'paydi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,8 % punktga kamayib, 28,2 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2023- yilning mos davriga nisbatan 8,5 % punktga kamayib, 46,7 % ni tashkil etdi.

# 2024- yilning yanvar-oktabr oylarida bino va inshootlar qurilishi

## Hududlarning hajmi, mlrd. so'mda

*Ma'lumot uchun:*  
Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Tomdi tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 96,8 %), Uchquduq tumani (83,6 %) va Navbahor tumani (82,8 %) da kuzatildi.



\*) joriy davr bo'yicha qurilish ishlari hajmi yashirin iqtisodiyotni qo'shgan holda hisob-kitob qilingan



Tomdi tumani  
**96,8 %**



Uchquduq tumani  
**83,6 %**




Navbahor tumani  
**82,8 %**



2024- yilning yanvar-oktabr oylarida fuqarolik  
obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari  
*Korxonalar turlari bo'yicha*

Fuqarolik obyektlarini qurish - 1 634,9 mlrd. so'm.




**Fuqarolik obyektlari qurilishiga** avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, quvur tarmoqlari va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 48,1 % ni tashkil etdi va 2023- yilning mos davriga nisbatan 25,8 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 51,9 % (25,8 % punktga kamaydi).

# 2024- yilning yanvar-oktabr oylarida fuqarolik obyektlarini qurish

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda



\*) joriy davr bo'yicha qurilish ishlari hajmi yashirin iqtisodiyotni qo'shgan holda hisob-kitob qilingan

*Ma'lumot uchun:* Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Navoiy shahar (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 32,7 % i), Karmana tumani (30,7 %) va Qiziltepa tumani (28,1 %)da kuzatildi.



**32,7 %**  
Navoiy shahar



**30,7 %**  
Karmana tumani




**28,1 %**  
Qiziltepa tumani

# 2024- yilning yanvar-oktabr oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari

## Korxonalar turlari bo'yicha

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari- 534,8 mlrd. so'm.




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,7 % punktga kamayib va 3,2 % ni tashkil etdi.

Qolgan 96,8 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,7 % punktga ko'paydi.

# 2024- yilning yanvar-oktabr oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda



*Maʼlumot uchun:*  
Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Gʻozgʻon shahrida (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 57,6 % i), Konimex tumani (43,5 %) va Navoiy shahar (12,4 %) kuzatildi.

\*) joriy davr bo'yicha qurilish ishlari hajmi yashirin iqtisodiyotni qo'shgan holda hisob-kitob qilingan



**57,6 %**  
Gʻozgʻon shahri




**43,5 %**  
Konimex tumani



**12,4 %**  
Navoiy shahari


# 2024- yilning yanvar-oktabr oylarida korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, *mlrd. so'mda*




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.


### Jami hajmga nisbatan ulushi



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar



Norasmiy sektor


2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –  
**2,2 m**

2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –  
**101,0%**

2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –  
**93,4 %**

# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024- yilning yanvar-oktabr oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari


## Yirik qurilish tashkilotlari, jamiga nisbatan ulushi



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024- yilning yanvar-oktabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2 691,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,2 marotabani va ularning umumiy hajmdagi ulushi 13,3 % punktga ko'payib, 27,8 % ni tashkil etdi.

**Xo'jalik usulida** bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

### Hududlar kesimida mlrd. so'mda




\*) joriy davr bo'yicha qurilish ishlari hajmi yashirin iqtisodiyotni qo'shgan holda hisob-kitob qilingan




# Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 2024- yilning yanvar-oktabr oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

## Kichik korxonalar va mikrofirmalar, jamiga nisbatan ulushi




2024- yilning yanvar-oktabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 36,0 % i to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 5,1 punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yilning mos davriga nisbatan 101,0 % ni tashkil etgan holda 3 492,1 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

## Hududlar kesimida jamida ulishi % da




# 2024- yilning yanvar-oktabr oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

## Norasmiy sektor, jamiga nisbatan ulushi




Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 36,2 % ni yoki 3 514,7 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 93,4 % ni tashkil etdi. Shundan 2 097,2 mlrd. soʻmi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga toʻgʻri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 91,1 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 983,3 mlrd. soʻmni va 95,1 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni taʼmirlash ishlari 434,2 mlrd. soʻmni va 101,7 % ni tashkil etdi.



# Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Yanvar-oktabr oyidagi hajm, (mlrd. so'mda)



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 365,9 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 9 332,4 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 3,8 % va 96,2 % ni tashkil etdi.



## Ma'lumot uchun:

Qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichlari Tomdi tumaniga (1373,8 mlrd.so'm), Qiziltepa tumaniga (1208,6 mlrd.so'm), Navoiy shahriga (1137,8 mlrd.so'm) va Zarafshon shaharga (881,1 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

## ***Qurilish ishlari*** **USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR**

***Qurilish ishlari*** – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

***Kapital qurilishga pudrat shartnomasi*** – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

***Qurilish tashkilotlari*** – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlarini o'z ichiga oladi.

***Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi***  
***Tel. (79) 223-54-73***